

Oxirat G'ami



Oxirat g'ami

Ramazon hayit ayyomi.Nusayba har galgidek erta sahardan turib,akalari va otasini namozga uyg'otib,masjidga kuzatdi va ko'cha xovlilarni supurib,suvlar sepdi.Chiroyli qilib dasturhon tuzadi.Chiroyli kiyimlarini kiyib o'ziga oro berdi.Otasi va akalari ham Hayit namozidan kelishdi.Barchaligi birga o'tirib nonushta qilishdi.Kun bayram kayfiyatida o'tmoqda edi.Peshin vaqtি bo'lди Nusayba tahorat olib,peshinga tayyorgarlik ko'rayotgan edi, romollarini o'radi shunda akasi Nusaybani ko'rib:

—Hijobga kirmisanmi?Axir voyaga yeting.Satr avratini berkitish voyaga yetgandan so'ng farz hisoblanadi.

Shunda Nusayba:

—Kiraman hijobga .Toyim kuni kirish niyatida edim

Deb javob qaytardi.Shunda akasi pand nasihat qilib Nusaybaning qalbiga hijobga kirish kerak ekanligini solib qo'ydi,albatta Alloh marhamat qilgani,Nusaybani hidoyatga boshlagani uchun.Shu kundan boshlab Nusayba hijobga kirishlikka ahd qildi.Otasidan izn so'radi.Otasi bu yengilikni eshitib juda ham hursand bo'lди.Chunki otasi qizini uzun ko'ylaklarda va ro'mollarda yurishini hohlar edi.Lekin Nusayba hijobga kirishligiga Onasi qarshilik qildi."Hali yoshsan,o'ynab kul katta xotinlarga o'xshab o'ranib olmasdan,yursangchi o'ynab ,kulib.Men baribir rozi bo'lmayman ,qiynalasan onson emas hijobda yurish.Maktabing ham bor,maktabda hijobingga ruhsat beradimi yoqmi hali?! Hozir kirmaysan hijobga"shu kabi gaplarni aytardi.Bu gaplarni eshitgan Nusayba horg'inlikka tushib yig'lar edi.

—Axir hijob farz-ku.Voyaga yetkandan so'ng satr avratini berkitish kerak.Qiyomatda ochib yurgan avratlarimdan qon aralash yiring oqib,badboy hid chiqib,musulmonlarga aziyat yetkizishni,Dozaxga o'tin bo'lishni hohlamayman: shu gaplarni etar,juda ko'p yig'lardi.Onasini xidoyatga boshlashini Allohdan so'rab yig'lab duolar qilar edi.Onasi ham bitta gapni ushlab olgan edi "Hozir emas.sabr qil"der edi.Nusayba sabr qilar edi.Nusayba

juda ko'p qaysarliklar qildi.Hijobga kiraman deb oyoq tirab turib oldi.Qurbon hayit ayyomi kuni kiraman deb niyat qilib yurdi.Afsus niyati amalga oshmadi.Yana sabr qildi.Har kuni onasiga etar edi "Meni kiyintirib chiqing hijobga kiraman"der edi onasi esa "Hozr emas,sabr qil "yana shu gapni aytar edi.Nusaybaning yig'lab qilgan duolari va nihoyat ijobat bo'ladigan bo'ldi.Maktab boshlanish arafasi edi.Maktab uchun bozorlik qilgani tushishganda hijobga kirish uchun ham ko'ylaklar sotib oldirtirdi, va maktab boshlanadigan kuni erta saharda turib,taxorat olib bomdod namozi va 2 rakat nafl namozini o'qib hijobga kirishlikni niyat qilib, duo qildi va o'sha kundan boshlab satr avratini berkitib yurdi ,ya'ni, hijobga kirdi.Nusayba hijobga kirganidan juda ham hursand edi.Maktabga chiqdi o'qituvchilari va do'stlari hayron edi.Ammo o'qituvchilari hijobga kirganligi uchun Nusaybani onlays darsga chiqarib yuborishdi.Nusayba bundan juda hafa bo'ldi."Nimaga maktablarda hijobga ruhsat yo'q,bu romolni nima yomon tarafi bor"deb norozilik bildirar edi.Oradan bir oy o'tdi va o'qituvchisini maktabga ro'mol o'rabi kiritiahligiga ko'ndirdi.Ammo Nusayba uchun bar bir qarshiliklar bo'lar edi.Maktab direktori va mahalla ayyolar raisi kelib ro'molingni orqadan o'ra deb taziq o'tkizishar edi.Nusayba bu gaplarni onasiga etsa onasi "Men senga aytgan edim.Shoshilding" deb,jerkib muomala qilar edi.Nusaybaning ko'ngli juda qattiq og'rib barchasiga sabr qilar edi.

Nusayba juda ko'p kitoblar o'qir edi.Ongi va ilmi tobora kuchayib borar edi.Dingga juda kirishar edi.ilmi anchagina oshdi, nimalar gunoh ,nimalar gunohmas,inson bu dunyoda nima uchun yashaydi ,hamma hammasini o'qib o'rgandi.Namoz va ibodatda edi har kuni.Ammo Nusaybani bitta narsa qynar edi.Nusaybaning otasi va onasi umuman ibodat qilishmas edi.Alkagol ichimliklar ichishar edi.Bu Nusaybaga umuman yoqmas edi.Axir kimga yoqadi ota-onasi xamirga mukkasidan ketgan,ibodat qilishmaydi,Axir hamma yaqinlari,oila azolari va birodarları bilan Jannatda birga bo'lishni hohlaydi-ku.Kim ota-onasini do'zaxga tushib u yerda azoblanishini hohlaydi.Nusayba Alloh taolodan ota-onasini xidoyatga boshlab,namozga kirib ketishligini xarom bo'lган mast qiluvchi ichimliklar ichishni tark qilishligini,Allohga haqdan ibodat qilishligini sorab yig'lab juda ko'p duolar qilar edi.Ramazon oyida ham o'giz ochar paytda juda kop duolar qilar,lekin ota-onasidan darak yo'q ,hali ham o'sha xamir ichishar, ibodat qilishmas edi.

Kunlarning birida Nusayba o'qishdan keldi va ne ko'z bilan ko'rsaki yana ota-onasi mast qiluvchi ichimliklar ichib o'tirishga ekan.Nusaybani bundan rosa jahli chiqar edi ,yig'lab yuboray deb yurar edi ,sabr kosasi to'lib jonidan o'tib

ketgan edi,chunki har ota-onasi mast bo'lib qolishganda onasi Nusayba bilan besabab urushar,tortishar,baqirar edi.,va ko'p hollarda o'zlarini bilmay mazalari qochib qolar edi,hushdan ketishlar,qayd qilishlar,nafas to'xtab qolar edi gohida.Bu narsalarga Nusayba zo'rg'a chidar tun-u yig'lab chiqar edi.Chunki uning faqat otasi emas onasi ham mast qiluvchi ichimliklar ichib janjal ko'tar edi.Shu kuni ham janjal yuz berdi.Kechqurun onasi mast holda Nusayba bilan gaplashib o'tirgan edi,eski ayiblarini Nusaybaning yuziga solib,tortishuv ko'tardi.Va "sen o'sha kitoblarining ichiga kirib ketkan san,inson hozirgi zamonda kitobga qarab yashay olmaydi.Kitob boshqa,zamon boshqa.Dininga juda ham kirib ketyapsan odamlarni yaxshilikka davat qilasanmi-ye.Yaqinda "vahobis"bo'lib qolasan bu ketishda.Hadeb kitob o'qib aqillilik qilishni yig'ishtir.Kitobga qarab yashay olmisan bu zamonda" shu kabi gaplarni qilib battar Nusaybani ezib gapirdi.Nusayba yig'lab jim eshitar edi ,bir so'z demas edi.İchidan juda ham to'yib ketkan,shundoq jon bersam-u ketsam deb ichidan ezilib ketdi.Ammo bir sabab to'xtatar edi,bu "agar men o'lsam ota-onam shu ahvolda yuraverishsa,oxiratda nima qilaman,ota-onam do'zaxga mahkum bo'lishsa,qiynalishlarini qanday hazm qilaman,qoriya bo'lib,oxiratda ularni shafoat qilish nematiga erishishim kerak,ularga Jannatda nурдан bo'lган тоj kiydiraman.Axir bitta qoriy(a) oxiratda 40 nafar yaqinini shafoat qilish na'matiga ega bo'ladi va men ham in shaa Alloh qoriya bo'lib shafoat qilishim kerak "deb o'ziga maqsad qoydi.Ko'p fursat o'tmay onasi yana shunaqa gaplarini boshladi."Qani Allohdan so'ra, uy-joyimmizni to'g'irlaylik ahvolini qara odam umuman turgisi kelmaydi bu uyda"deb gapirdi.Shunda Nusayba:

—Gunohlarimiz ko'p har kuni gunoh qilamiz,istig'for etmaymiz,shuning uchun ham,duolarimiz ijobat bo'lmayapti,rizqimiz barakasiz

Deb javob qaytardi,onasi esa;

—Qani qanaqa gunoh qilayotkan ekanmiz?:dedi

Nusayba bu gappa kulishni ham,yig'lashni ham bilmay:

—Shu turishingiz ham gunohku avratlariz ochiq,mast qiluvchi ichimliklar ichasizlar,namoz o'qimaysizlar

deb yig'lab gapirdi.Bu gaplardan nimagadur onasini jahli chiqib,

—Ko'rib turibmiz hijob o'rab,soqol qo'yib,namoz o'qib yurganlarni ahvolini hammasi shu narsalarni orqasiga yashirinib gunoh qilib yuradi.Man domlalaringa ham ishonmiman

Dedi va to'satdan "Allohinga ham,ishonmiman"deb yubordi.Nusayba bu gapni eshitib battar yig'lab,"Unaqa dimen oyi" deb ko'zlaridan jiqqa-jiqqa yosh oqar edi.Onasini yana battar jahli chiqib:

—San bizani gunohkor deyapsanmi?Kim bo'psan bizani qilayotkan ishlarimizni gunohmi ,savobmi ajratib o'tiradigan.Qisak o'zimiz uchun qilamiz,bizani qabrimizga san tushib, san javob bermisan

Deb baqirib gapirib,orada "sani oq qildim"deb yubordi .Nusayba "Oyi unaqa dimen,iltimos" deb juda qattiq yig'ladi.Bu dunyoda umuman yashagisi kelmay qoldi.Alloh o'zi kechirsin ku lekin Allohga meni jonimni olgin deb yig'lab yig'lab duo qildi.Chunki jonidan ham o'tib ketgan edi da.

Bu kunni ham bir amallab o'tkazdi.Ertasi kuni Onadi bilan gaplashmas edi ham.Ikkalalari ham bir birlaridan hafa edilar.Oradan uch to'rt kun o'tdi.Munosabatlari ham ancha yaxshilandi.Dilxiraliklar unutildi.Oradan vaqtlar o'tdi bu kabi urushlar juda ko'p bo'lar edi.Nusayba yashashdan to'yib ketgan edi.Hali hamon u Allohga jonimni olgin deb duolar qilar edi

Bir kun u shunday tush ko'rdi.Tushida oilasi va yaqin do'stlari bilan mahallasida yurishar edi.Ularni qandaydir insonlar quvlab kelishdi.Ular qochishga va yashirinishga harakat qilishdi.Nusayba maysa va uzun uzun o'tlar orasiga yashiringan edi.Haligi ularni quvlayotgan va o'ldirishga harakat qilayotgan odamlar Nusaybani topib olib uni bo'yin qismiga bolta bilan urshdi va Nusayba tushida vafot etdi.Uni uya olib ketishibti.Janoza ham huddi oddiy marosimdek o'tar edi.Nusayba o'zini sezар edi tushida yani yurardi boshqa ishlar qilar edi ammo uni hech kim ko'rmas edi .Chunki u endi ruhga aylangan edi.Nusayba juda bezovta edi."Meni hech kim vafot etganimdan hafa emas hech kim yig'layotgani ham yo'q.Janozamni oddiy marosimdek o'tkazib yuborishayapti.Men o'lishni hohlamayman.Hali namozlarim va tutgan ro'zalarim to'liq emas.Qiyomatda tarozim yengil kelib qoladi.Jaxannanga tushishni hohlamayman.Hali ko'p savobli ishlar qilishim,farz bo'lган tarixlarni o'rganishim kerak.Allohim meni tiriltir,dunyoga qaytar,savobli amallar qilib olay" deb duo qildi va uyg'onib ketdi.Bu tush unga kelgan xabar edi.Bu tushni ko'rgandan so'ng u Allohga jonini olishini so'rab duo qilishni to'xtadi.Aqli kirdi va savobli amallar qilishga

kirishdi.Nusaybaga hali ham onasi tomonidan taziq o'tkazilar edi.U juda ham charchadi ,lekin sabr qilib ota-onasiga xidoyat so'rab duo qilishda davom etdi.

Nusayba Allohnинг kalomini yod olishga kirishdi.Oradan yillar o'tib madrasaga o'qishga kirdi va u yerda dindan yanada ko'proq ilm olish uchun taxsil oldi.Nusayba bo'sh vaqtlarida quron yodlar,kitoblar o'qir va maruzalar eshitar edi.Hech ham zerikmas edi.Va u ora orada o'zini haytoni hikoya shaklida yozib yurardi.Va nihoyat Nusayba maqsadiga erishdi.U Allohninv kalomi bo'lgan Quronni to'liq yod olib qoriya bo'ldi.Uning quvonchi dunyolarga sig'mas edi.Shuncha qilgan duolari va harakatlari bilan Qoriya bo'ldi Allohgа ko'pdan ko'p hamdlar aytib ota-onasini ham hidoyatga kirishini so'rab duo qildi.Endi u hotirjam edi.U Qiyomatda ota-onamni shafoat qilishlik baxtiga muyassar bo'ldim dedi.Oradan vaqtlar o'tdi .Nusaybaning ham bo'yи yetib unga sovchilar kelishni boshladi.Juda ko'p sovchilar kelar edi ammo Nusaybaga kuyov unchalik hush kelmasdi.Chuni u o'ziga o'xshagan taqvoli, iymonli,diyonatli yigitni kutmoqda edi.

Bir kuni Nusayba taxorat olib kelib xufton namozini o'qib uhlash uchun yotdi.Uyquga ketishdan avval duolar qilib,shahodat kalimasini keltirib yotdi.Va ertasi kuni qaytib uyg'onmadi.Alloh taolo uni bu pashshani qanotiga ham arzimaydigan dunyodan qutqardi.U vafot etdi.Uyga g'amginlik cho'mgan ota-onasi akalari uvos solib yig'lar juda tushkunlikka tushib qolishdi.Nusaybaga janoza o'qilib mahallasidagi qabristonga olib borib ko'mishdi.Oilasidagilar va yaqinlari dod solib yig'lashar edi.

Oradan vaqt o'tdi mahzunliklardan halos bo'lishdi oz bo'lsa ham.Bir kun onasi honasiga kirib hayollar surib qoldi va honasidan Nusayba o'z hayotini yozib yurgan daftarni topib oldi.Uni Nusaybaning otasi bilan birga o'qishdi va Nusayba har kuni ular hidoyatga borishlarini so'rab yig'lab duolar qilishini barchasiga sabr qilib kelganini bilishdi va ularning qalbiga Alloh hidoyat nurlarini soldi.Ular hidoyatga kirib namoz o'qishni boshlashdi xamir ichishni va boshqa xarom illatlarni tark qilishdi.Va qizining haqqiga ko'pdan ko'p duolar qilishdi.

Insonning qadriga yetish uchun albatta u o'lishi kerakmi?

Yaqinlaringizni tiriklik paytida qadrlariga yeting.Keyin kech bo'lishi mumkin!

